

YASHIL INVESTITSİYALARNING GLOBAL TENDENSIYALARI, ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

*Shuhratillayev Yusuf Oybekovich*³¹

*Absaitov Ilhom Qaxramon o‘g‘li*³²

*Umurov Otabek Ortiq o‘g‘li*³³

*Zakirova Sayyora Alimovna*³⁴

Annotatsiya: So‘nngi yillarda iqlim o‘zgarishi, havo va suvning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi hamda yerosti resurslarining tugash xavfi tufayli yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun ulkan sarmoyalar kiritilmoqda. Bu borada bir qancha muzokaralar olib borilmoqda va BMTning BRM(Barqaror Rivojlanish Maqsadlari) 2030-yilgacha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan 17 ta global maqsadlarda ham yashil iqtisodiyot masalalari muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Barqaror Rivojlanish Maqsadlar (BRH), yashil investitsiyalar, ekologiya, iqtisodiyot

Kirish

Yashil iqtisodiyotga ko‘ra, tabiiy resurslarga tabiiy aktiv sifatida qaraladi hamda ularga zarar yetkazishning oldini olish juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, barqaror rivojlanish g‘oyasi ilgari suriladi, ya’ni hozirgi resurslar kelajak avlodga ham yetarli bo‘lib borishi zarur. Yashil investitsiya - bu tabiatga zarar yetkazmaydigan, ekologik xavfsiz texnologiyalarga va loyihalarga sarmoya qilish hisoblanadi. Bu orqali emissiyalar va ifloslanish kamaytiriladi, energiya samaradorligi oshiriladi, qayta tiklanadigan energiya manbalari takomillashtiriladi hamda tabiiy resurslarga bo‘lgan qaramlik kamaytiriladi.

Yashil investitsiyalarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga bir qancha omillar sabab bo‘lmoqda. Masalan, qishloq xo‘jaligi, og‘ir sanoat va shu kabi sohalar tufayli atrof-muhitga ulkan zarar yetmoqda va natijada global miqyosda ifloslanish kuzatilmoqda. Yashil investitsiyalar orqali infratuzilmalarga va ishlab chiqarish sohalariga toza texnologiyalarni joriy qilish bilan bu muammolarni kamaytirish mumkin. Yashil sohalarini rivojlantirish orqali yangi sanoat tarmoqlarini yaratish hamda iqtisodiy o‘sishga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, yashil iqtisodiyot yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va shu tariqa kambag‘allik va ishsizlik kabi muammolarni kamayishiga olib keladi.

³¹ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

³² Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

³³ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

³⁴ JIDU “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n. e-mail: szakirova@uwed.uz

Bu tizim davlatni barqaror rivojlantiradi va xalqaro nufuzini yanada oshiradi. Biroq bu sohada ham bir nechta muammo va qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Yashil loyihalar dastlab ko‘p to‘lov talab qilishi hamda foyda tez bo‘lmasligi tufayli investorlar uchun jozibador ko‘rinmaydi. Bunday texnologiyalar ko‘pincha yangi va noaniq bo‘lganligi uchun tijorat nuqtayi nazardan muvaffaqiyatsiz chiqish ehtimoli bor. O‘zbekiston Respublikasida ham bu sohada ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda hamda Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 5-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-2030 yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorini yaqqol misol keltirish mumkin. Bundan tashqari, 2018-yilda Parij bitimini(Parij, 2015-yil) ratifikatsiya qildi va 2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish majburiyatini qabul qildi. Bu bilan shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida ulkan va sezilarli yutuqlarga erishdi va bu sohada islohotlarni amalga oshirishda davom etmoqda.

Zamonaviy dunyoda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot masalalari O‘zbekiston uchun ham muhim va dolzarb bo‘lib bormoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qatori yashil investitsiyalarni O‘zbekistonda qo‘llash va faoliyatini qo‘llab-quvvatlash yashil iqtisodiyot uchun boshlang‘ich qadam hisoblanadi. Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konseptsiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi³⁵. Strategik rivojlanish bir qator dolzarb masalalarni bosqichma-bosqich yechish kerakligini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston iqtisodiyotining ma‘lum bir jabhalarda ekologik tizimga zarar yetkazuvchi ya‘ni: qishloq xo‘jaligi, energetika, og‘ir sanoat, transport, shaharsozlik va bir qator muammolar ham nazarda tutilgan. Bundan tashqari, tabiiy resurslardan unumli foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi, qayta tiklanadigan energiya, turizm va tabiiy resurslar sohalarida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston va BAA o‘rtasida kelishuv imzolandi³⁶ hamda mamlakatimizda bosqichma bosqich qayta tiklanuvchi energiyalarga o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda.

- Bunda quyosh nurlari ko‘p tushadigan yerlar ya‘ni, Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlarida quyosh elektr stansiyalarini qurish orqali chekka joylarda istiqomat qiluvchi aholini elektr bilan ta‘minlash, elektr ishlab chiqarish mobaynida tabiatga bo‘lgan zararni kamaytirish nazarda tutilgan.

³⁵ [PQ-4477-coh 04.10.2019. 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida](#)

³⁶ [UAE & Uzbekistan agree to promote trade & economic cooperation in food security, renewable energy, tourism & natural resources | Ministry of Economy - UAE](#)

2021-yilda BAA bilan hamkorlikda qurilgan “Nur Navoiy” korxonasining qurilishi yashil investitsiyalar uchun birinchi qadam hisoblandi.

- 2024-yilning iyun oyida Buxoroda ishga tushirilgan “Zarafshon Shamol Elektr Stansiyasi” Markaziy Osiyoda eng yirik shamol generatorlaridan biri hisoblanadi. Generatorlarning Vestas (Daniya) va Goldwind (Xitoy) turbinalari, yillik 1,65 mlrd. kVt/soat quvvatni ishlab berishga qodir. Shu qatorda O‘zbekiston shamol stansiyalari bo‘yicha ACWA Power (Saudiya Arabistoni), Masdar (BAA), China Energy Engineering Corporation (CEEC, Xitoy), Voltaia (Fransiya) va boshqa mashhur kompaniyalar bilan kelishuvga erishgan.
- O‘zbekistonda issiqxonalaradn karbon gazi chiqindilarini kamaytirish maqsadida, ko‘plab mamlakatlar bilan muzokaralar olib borilib, bitimlar imzolanmoqda. Shu jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mamlakatmiz hududida 174 ta loyihaga 5.5 mlrd yevrodan ortiq investitsiyalarni jalb qilgan. Issiqxona va qishloq xo‘jaligida suvni tejash ya‘ni tomchilab sug‘orish, hosildorlikni oshirish, tadbirkorlarni agro-biznes, issiqxona biznesi, ishlab chiqarish, logistika sohalarida qo‘llab-quvvatlash nazarda tutilgan.
- 2023-yildan boshlab yashil investitsiyalarning davomi sifatida "UzAutoMotors" Xitoyning BYD kompaniyasi bilan birgalikda elektromobillarni yig‘ish loyihasini yo‘lga qo‘ydi. Shu binobarin, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent shaharlarida birinchi zaryadlash stansiyalari qurilmoqda. Elektromobillarga o‘tish orqali havo ifloslanishini oldini olish, neft import qilish o‘rniga, mahalliy elektrdan foydalanish va shu kabi maqsadlar ilgari surilgan.

Yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning yana bir yo‘li bu Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BRM) rioya qilishdir. Sababi BRMning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbaalari iqlim o‘zgarishi, iqtisodiy o‘sish va shu kabi dolzarb muammolarni yechishga qaratilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlari — bu 2015 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan 17 ta global maqsadlar to‘plamidir. Ushbu maqsadlar insoniyat duch kelayotgan iqlim o‘zgarishi, iqtisodiy krizis, ekologik tanazzul va qashshoqlik kabi global muammolarning 15 yil ichida oldini olish nazarda tutilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda asosiy omillardan biri bu — quyosh, shamol, gidroenergiya va geotermal energiya kabi manbalarni o‘z ichiga oluvchi qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishdir.

BRMning 7-maqsadi (Arzon va toza energiya) bevosita yashil energiya bilan bog‘liq bo‘lib, energiyadan hammaning foydalanish imkoniyati, arzon va ekologik xavfsiz qilishni maqsad qiladi. Energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi

manbalardan foydalanish, an’anaviy qazilma yoqilg‘ilarga qaraganda samaraliroq va ekologik tozaroqdir.

Boshqacha qilib aytganda, quyosh panellari, shamol turbinalari, suv yoki Yerning ichki issiqligidan olinadigan energiya butunlay toza va uzluksizdir, aksincha, karbon asosidagi yoqilg‘ilardan olingan energiya esa havoni ifloslantiradi va cheklangan zaxiraga ega. Bundan tashqari, BRMning 13-maqsadi (Iqlim bo‘yicha chora-tadbirlar)ga erishish ham, aynan, zararli qazilma yoqilg‘ilar o‘rniga yashil energiyani targ‘ib qilish orqali mumkin bo‘ladi. Qayta tiklanuvchi energiya BRM7 va BRM13 dan tashqari boshqa ko‘plab maqsadlarga erishishda ham katta salohiyatga ega. Masalan, arzon va qayta tiklanuvchi energiyaga kirish imkoniyatining ortishi iqtisodiy o‘rishni (BRM8) rag‘batlantiradi, sog‘liqni saqlash muassasalarini energiya bilan ta’minlab, sog‘liqni saqlash natijalarini yaxshilashga (BRM3) xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yashil investitsiyalar orqali yer yuzidagi ekologik muammolarga yechim topa olishimiz, barqaror va muqobil yo‘llarni kashf etishimiz mumki. O‘zbekiston ham asta-sekinlik bilan “yashil” iqtisodiyotga xorijiy hamkorlar bilan ish olib borib, jahon tajribasini mahalliyashtirilgan holda o‘zimizda joriy qilishni g‘oyasini ilgari surmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2023, September 11). *Water-smart greenhouses in Uzbekistan*. FAO. Retrieved April 26, 2025, from <https://www.fao.org/newsroom/story/Water-smart-greenhouses-in-Uzbekistan/en>
2. Ministry of Economy – UAE. (2025, April 21). *UAE & Uzbekistan agree to promote trade & economic cooperation in food security, renewable energy, tourism & natural resources*. Retrieved April 26, 2025, from <https://www.moec.gov.ae/en/-/uae-uzbekistan-agree-to-promote-trade-economic-cooperation-in-food-security-renewable-energy-tourism-natural-resources>
3. Ogwu, C. M., Obidi, P. O., & Salihu, O. S. (2024). *The role of renewable energy in achieving sustainable development goals*. International Journal of Engineering Research Updates. Retrieved April 26, 2025, from <https://www.researchgate.net/publication/385696779> *The role of renewable energy in achieving sustainable development goals*
4. Malikov, N. (2023). *The Importance of Attracting Quality Investments*. International Affairs, (3-4).

5. Yormonqulova, N. I. (2024). *Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi*. Qo'qon Universiteti Xabarnomasi, 11, 44–47. <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.951>

YASHIL INVESTITSİYALARNING GLOBAL TENDENTSIYALARI, ULARNI O‘ZBELKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Turdimuxammadov Lazizbek Oybek o‘g‘li³⁷

ANNOTATSIYA. So‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab juda ko‘p miqdordagi ekologik muamolar kuchayib, iqlim o‘zgarishlari, resurslarning kamayib borishi va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatlar jiddiy muammolarga sabab bo‘lmoqda. Dunyo rivojlanib borgan sari uning yomon taraflari ham ko‘payib bormoqda, ushbu holatlar barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni yaratishni va innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri bu “yashil investitsiyalar” tushunchasidir. Yashil investitsiya – bu atrof- muhitga zarar yetkazmaydigan, balki uni asrashga qaratilgan va uning faoliyatiga yo‘naltirilgan sarmoyalardir. Bu investitsiya iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash bilan birga ekologik barqarorlikni saqlashga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yashil investitsiyalar, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, global tendentsiyalar, O‘zbekiston imkoniyatlari,

Kirish

Hozirgi davrda ko‘plab davlatlar iqtisodiy o‘shishnigina asosiy maqsad qilib qo‘yishgan, bularning ortidan qanday talofatlar qolishini e‘tiborga olishgani yo‘q. To‘g‘ri bularning orqasidan infratuzilmalarni rivojlantirish, satoatni kengaytirish, eksport va importni oshirish kabi yutuqlarga olib keladi, ammo bularning ortidan atrof-muhit yomonlashishi kelib chiqadi. Ekologik tomonlar e‘tiborsiz qoldirilganda, nafaqat tabiat, balki insonlarning salomatligi va jamiyatning barqarorligiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday rivojlanishlarning ortidan havo va suvning ifloslanishi, yer resurslarining degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi muammolarga yuzaga kelmoqda. Avvalo, ekologik omillarni e‘tiborsiz qoldirish natijasida havo, suv va tuproq ifloslanishi ortmoqda, yirik sanoat shaharlarida havodagi zararli moddalarning ko‘payishi inson salomatligiga ham bevosita ta‘sir qilmoqda. Masalan, o‘zimizning Toshkent shahri misolida olib qaraganda, hozirgi shaharimizda iqtisodiy o‘shish yuzida yangidan – yangi imoratlar qurilishi va transportlarning soni keskin tarzda oshib ketishi natijasida havodagi PM2.5 zarrachalari Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hamma uchun tavsiya qilgan

³⁷ Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti, xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi, lturdimuhammedov@gmail.com